# Bayramona shukuh

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining “Gidromelioratsiya” fakultetidagi talaba-qizlarni 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan fakultet dekani A.Fatxulloyev, yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan o’rinbosari O. Habibullayev, o’quv-ishlari bo’yicha dekan o’rinbosarlari N.Shaymanov, S. G’ulomov, A. Karimov va S. Mansurovlar tabrikladi. Fakultet dekani so’zga chiqib, fakultetdagi talaba-qizlariga Institut rektorining bayram tabrigini yetkaza turib, Bahor faslining eng go’zal shukuhi, nafosat va go’zallikni tarannum etuvchi 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan muborakbod etdi. O’lkamizga kirib kelgan bahor ifori doim betakror go’zallik, jozibali nafosat, ajib latofatni hadya etsin. Ushbu she’r orqali dil izhorlari bildirildi.

Erta bahor gulagan binafsha misol,
Ko'nglingiz doim beg'ubor bo'lsin.
Yangi ochilgan gul "Lola" misol,
Lablaringizda doim tabassum bo'lsin.
Dildan ezgu tilakraim sizgadir tanho
8-MART ayyomingiz muborak bo'lsin!
Ayyomingiz muborak, aziz va mo’tabar ayollar!

**TIQXMMI matbuot xizmati**